

OILAVIY TARBIYA USLUBLARINING BOLALAR EMPATIIYASI RIVOJIGA TA'SIRI

Ishchanova Fazilat Shamurotovna
Osiyo Universiteti magistri talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda oilaviy tarbiya uslublarining bolalarda empatiya, ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, ularga hamdardlik bildirish va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatining shakllanishiga ta'siri yoritilgan. Ota-onalarning farzandga bo'lgan munosabati, muloqot madaniyati va tarbiya uslubi bolaning hissiy-intellektual rivojlanishida muhim omil ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, empatiya, bolalar psixologiyasi, ota-ona munosabati, demokratik tarbiya, avtoritar tarbiya, liberal tarbiya.

Asosiy qism

Oila – bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Bolaning ilk hissiy tajribalari, insonlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari va ijtimoiy qadriyatlar avvalo oilada shakllanadi. Shu bois oiladagi tarbiya uslubi bolaning nafaqat xulq-atvoriga, balki uning emotsional rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Empatiya – bu insonning boshqa kishining hissiy holatini tushunishi, uning kechinmalarini his qila olishi va unga nisbatan hamdardlik bildirish qobiliyatidir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, empatiya bolalarda ijtimoiy moslashuv, sog'lom muloqot va ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy tarbiya uslublari odatda uch turga bo'linadi:

Demokratik tarbiya uslubi. Ushbu uslubda ota-onalar farzandining fikrini tinglaydi, uning his-tuyg'ulariga hurmat bilan yondashadi va mustaqilligini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday muhitda ulg'aygan bolalar boshqalarning kechinmalarini tushunishga, hamdardlik ko'rsatishga va ijtimoiy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishga moyil bo'ladilar. Avtoritar tarbiya uslubi. Bu uslub qat'iy nazorat, ko'p taqiqlar va buyruqlarga asoslanadi. Ota-onalar bolalarning his-tuyg'ularini e'tibordan chetda qoldirishi natijasida bolalarda hissiy sovuqlik, tajovuzkorlik yoki boshqalarga nisbatan befarqlik rivojlanishi mumkin.

Liberal (erkin) tarbiya uslubi. Bu uslubda bolaning xatti-harakatlari ustidan nazorat yetarli darajada bo'lmaydi. Natijada bolalarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarning kechinmalarini tushunish ko'nikmalari sust rivojlanishi mumkin. Bolalarda empatiyaning rivojlanishida ota-onaning shaxsiy namunasi ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar o'zaro mehr-oqibatli, hurmatli va samimiy munosabatda bo'lsalar, bolalar ham ana shunday ijtimoiy xulq-atvorni o'zlashtiradilar.

Aksincha, oiladagi nizolar, zo'ravonlik va e'tiborsizlik bolaning hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixi va madaniy merosi mavjud. Ushbu meros jamiyatning ma'naviy, axloqiy va pedagogik qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Ayniqsa, O'rta Osiyo xalqlarining pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy merosi o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ushbu merosning mazmun-mohiyati xalq og'zaki ijodi namunalari, urf-odat va an'analar, shuningdek, buyuk mutafakkirlarning ilmiy va falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Sharq mutafakkirlari, jumladan, Abu Iso at-Termiziy va Imom al-Buxoriy tomonidan yaratilgan ilmiy-ma'naviy meros inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ma'naviy yuksalish masalalarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ularning asarlari yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Yosh avlodni maqsadga muvofiq tarbiyalashda ota-onalar tarbiyaning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va vositalari haqida yetarli pedagogik bilimga ega bo'lishlari zarur. Shuningdek, ular farzandlarining yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishlari lozim.

O'zbek oilalarida bola tarbiyasining turli metodlari, jumladan, ishontirish, tushuntirish, nasihat qilish, shaxsiy namuna ko'rsatish, rag'batlantirish, ogohlantirish, tanbeh berish va zarur hollarda jazolash usullari qo'llaniladi. Mazkur usullardan samarali foydalanish quyidagi pedagogik qoidalarga amal qilishni taqozo etadi:

- oilada ijobiy psixologik muhit va hissiy barqarorlikni ta'minlash;
- ota-onaning shaxsiy namunasini saqlash va obro'sini mustahkamlash;
- tarbiyaviy talablarda birlikni qaror toptirish;
- bolani mehnat faoliyati orqali tarbiyalash;
- oila, maktab va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yish;
- bolaga mehr-muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- oilada qat'iy kun tartibi va intizomni shakllantirish;
- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- bola rivojlanishini muntazam kuzatib borish;
- mustaqillik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish.

Oilada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitning mavjudligi bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik va g'amxo'rlik farzandlarda ijobiy axloqiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Oila a'zolarining qiziqishlari, ehtiyojlari va

intilishlarining o'zaro uyg'unligi oilaviy munosabatlarning mustahkamligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Ko'p bolali oilalarda farzandlar o'rtasidagi o'zaro yordam, mas'uliyat va hamkorlik tuyg'ulari kuchli rivojlanadi. Kam bolali oilalarda esa ayrim hollarda bolani ortiqcha erkalatish oqibatida unda erkalik, o'jarlik va haddan tashqari individualizm kabi sifatlar shakllanishi mumkin.

Oilada qat'iy intizom va oqilona kun tartibining mavjudligi bolalarning ta'limdagi muvaffaqiyati, axloqiy rivojlanishi va salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ota-onalar o'zlari ham belgilangan tartib-qoidalarga amal qilib, farzandlariga shaxsiy namuna bo'lishlari zarur.

Aksincha, oiladagi nizolar, ota-onalarning zararli odatlarga ruju qo'yishi, doimiy janjal va kelishmovchiliklar bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir etadi. Bunday sharoitda bolalarda qo'rquv, xavotir, ruhiy zo'riqish va turli nevroitik holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Oila ijtimoiy institut sifatida nafaqat farzandlarning moddiy ehtiyojlarini qondiradi, balki ularni mehnatsevarlik, mustaqillik, mas'uliyat va ijtimoiy munosabatlar madaniyatiga ham o'rgatadi. Ota-onalarning savodxonligi va pedagogik madaniyati bolalarning intellektual va ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, bola tarbiyasi ota-onalardan maxsus pedagogik yoki psixologik ma'lumotni qat'iy talab qilmasa-da, tarbiya masalalariga ongli va mas'uliyatli yondashuvni, pedagogik bilimlarni muntazam ravishda boyitib borishni taqozo etadi. O'z farzandlariga munosib tarbiya bera olgan ota-onalar nafaqat jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadilar, balki oilaviy baxt va farovonlikka ham erishadilar. **Xulosa**

Demokratik oilaviy tarbiya uslubi bolalarda empatiya rivojlanishi uchun eng qulay psixologik muhitni yaratadi. Ota-onalar tomonidan mehr, e'tibor va hissiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi bolalarning boshqalarga nisbatan hamdardlik, mehribonlik va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Shuning uchun oilada sog'lom psixologik muhitni yaratish va bolalarning hissiy ehtiyojlariga e'tibor qaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Muxina V.S. Yosh davrlari psixologiyasi. – Moskva, 2012.
4. Santrock J.W. Child Development. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
5. Baumrind D. Current Patterns of Parental Authority. – Developmental Psychology, 1971.